

IQBOL MIRZO IJODIDA RUHIYAT TASVIRI

Nasiba Surabovna MIRSAATOVA

mustaqil izlanuvchi

Alisher Navoiy nomidagi

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

mirsaatovan13@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Iqbol Mirzo lirikasining badiiy-estetik xususiyatlari muhabbat lirikasining yorqin namunasi asosida tahlil qilinadi. Shoir she'rlarida qo'llangan metafora, tashbeh va ramzlarning lirik qahramon ruhiy holatini ifodalashdagi o'rni ifodalanadi. Xususan, "ko'z", "muz", "kulgu", "boychechak" kabi obrazlar orqali muhabbat, iztirob va qalb yangilanishi poetik talqin etiladi. Shoir ijodining xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqligi, qo'shiq ohangiga yaqinligi hamda uning milliy va umuminsoniy g'oyal bilan uyg'unligi ochib beriladi. Tahlil natijalariga ko'ra, Iqbol Mirzo she'riyatida kechinma tasviri shaxsiy ruhiy holat bilan bir qatorda milliy ma'naviy xotirani ifodalovchi muhim badiiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tayanch so'zlar: Iqbol Mirzo, muhabbat lirikasi, badiiy tasvir vositalari, metafora, tashbeh, ramz, xalq og'zaki ijodi.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО МИРА В ТВОРЧЕСТВЕ ИКБОЛА МИРЗО

Насиба Сурабовна МИРСААТОВА

Независимый исследователь

Университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

mirsaatovan13@mail.ru

Аннотация

В данной статье на основе яркого образца любовной поэзии анализируются художественно-эстетические особенности лирики Икбола Мирзо. В центре внимания статьи — роль метафор, сравнений и символов, используемых в стихотворениях поэта, в передаче внутреннего душевного состояния лирического героя. В частности, через такие образы, как "глаза", "лёд", "смех", "подснежник", поэтически осмысливаются любовь, страдание и духовное обновление души. В статье также раскрывается органическая связь творчества поэта с устным народным творчеством, его близость к песенной мелодике, а также гармония национальных и общечеловеческих идей. По результатам анализа установлено, что в поэзии Икбола Мирзо изображение переживаний выступает важным художественным фактором, выражающим не только личное психологическое состояние, но и национальную духовную память.

Ключевые слова: Икбол Мирзо, любовная лирика, средства художественной выразительности, метафора, сравнение, символ, устное народное творчество.

O'zbek adabiyotida mustaqillikdan keyingi davr she'riyati yangi badiiy izlanishlar, ruhiy kechinmalarni teran ifodalash bilan ajralib turadi. Tabiiyki, ushbu davr shoirlari orasida Iqbol Mirzo alohida o'rin tutadi. Uning ijodi inson ruhiyatining nozik qatlamlarini, qalb kechinmalarini, ijtimoiy va ma'naviy iztiroblarni badiiy tasvirlashga qaratilgani bilan e'tiborlidir. Shoir she'rlari inson ruhining og'riqlari, orzu-intilishlari, shuningdek, millat ruhiyatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Ijodkor o'z ruhiy-psixologik evolyutsiyasini she'rlarida ko'rsatib boradi. Shoirning turli yillarda yaratilgan asarlarida ruhiyat tasviri turlicha bo'lishi shubhasiz. Sababi inson bu yillar davomida o'zini shaxs sifatida ham, ijodkor sifatida ham, psixomavjudot sifatida ham yangilab boraveradi. Qalamga olganlarida ham ana shular ko'zga tashlanadi. Muallifning doimiy o'qirmanlari bu jarayonlarni sezadi, kuzatib boradi. Ehtimol ushbu hodisalar shoirning o'ziga bir qarashda tushunarsiz bo'lishi mumkin, ammo yillar o'tib o'z izlanishlariga ko'z tashlaganda ushbu evrilishlar yaqqol ko'rinaveradi.

Adabiyotshunos Kemper Dirk "Hikoyachining avtobiografik poetikasi" nomli tadqiqot ishida avtobiografik ishlar tadqiqi borasida ancha ishlar amalga oshirilganini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, yozuvchi "o'zi ham e'tibor qaratgandek yoki noxos hayratda qolgandek asarda o'z aksini hamda tarixi va hayotining bir parchasini ko'radi" [6;227]. Xuddi shunday shoir ham o'z ruhiy evolyutsiyalarini keyinroq noxos payqaydi, yoki ularga o'zi ham e'tibor qaratgan bo'ladi.

Shoir poetikasidagi ruhiy kechinmalar rang-barang, shoir shaxsi bilan muayyan bog'liqlik kasb etuvchi tuyg'ular tarannumida ijodkor jamiyatda qanchalik faol bo'lsa, uning yozganlari ham xilma-xillik kasb etadi. Qalamkash tavsirlarida ruhiyat ba'zan umumiylik, ba'zan xususiylik, ayrim o'rinlarda horg'in,

ayrim vaziyatlarda esa kuchga to'lgan, goh shukrona bilan yonayotgan, gohida ijtimoiy muammolardan charchagan holatlarda bo'ladi.

Shoir poetikasida ruhiy kechinmalarni tahlilga tortishda muallif asarlarining yillar davomidagi ketma-ketligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Iqbol Mirzo she'riyatida lirizm va samimiylik ustuvor o'rin tutadi. She'riy asarlarida shoir nasriy sochmalar shaklida yozganda ham lirizatsiya emementlari bo'rtib turadi. Muallif shu jihatdan yangi izlanishlarni o'z ijodida sinab ko'radi va u nasrni ham she'rlashtirib yuboradi. Iqbol Mirzo lirikasidagi samimiylik esa uning yozganlarini o'quvchilarga yanada yaqin qiladi.

Shoir she'rlarining lirik qahramoni tashqi dunyo bilan emas, balki ichki olami bilan suhbatlashadi. Lirik qahramon oshiq bo'ladimi yoki jamiyatdagi biror erkin shaxsmi, u hamisha ichki monologlarini tashqi suhbatlardan ustun qo'yadi. Ko'ngil insoni sifatida qalam bilan sirlashadi. Ruhiyat tasviri, avvalo, shaxsning o'z-o'zini tinglashi, ichki iztiroblarini ifoda etishi orqali yuzaga chiqadi. Muallif albatta o'z qalb iztiroblarini she'rga to'kadi. Shoirning ko'plab she'rlarida inson qalbining yolg'izligi, sevgi va iztirob, shuningdek, umid va qo'rquv kabi qarama-qarshi holatlar poetik ifodasini topadi. Inson qalbining yolg'izligini shoir jisman anjumanda yashash bilan zidlantiradi. Jasad hamisha insonlar orasida, do'stlar davrasida. Biroq uning qalbi hamisha xilvatda qolaveradi. Sevgi va iztirob ham doimiy ravishda shoir lirikasida yonma-yon, sevgi bor she'rda, bilingki iztirob ham yo'q emas. Umid va qo'rquv o'rtasidagi zidlantirishlar ham shoir lirizmini o'zgacha tarzda boyitib beradi.

D. Tojiboyeva "XX asrning so'nggi choragida o'zbek she'riyatida uslub muammolari" nomli tadqiqotida Usmon Azim ijodi haqida shunday fikrlarni bildirib o'tadi: "Usmon Azim she'riy uslubni dunyo va inson taqdiri orasidagi isyonkor ruh timsoli, betakror tasviriy vositalar, teran mushohada bezab turadi. Isyonkorning xayolot dunyosi, real voqelikka munosabati bilan uning she'rlarida yaqqol ko'rinadi" [5;21].

Xuddi shuningdek, Iqbol Mirzo ijodida ham poetik uslub masalalari she'rlardagi ruhiyat tasviri bilan hamohang rivojlanadi. Xayolot dunyosi hamda

real voqeliklar orasidagi farqlar, ruhiyatdagi isyon hamda itoat, yangi badiiy tasviriy vositalar bilan chizilgan ruhiy ong muammolari o'quvchilarni qiziqtirib qo'yadi. Bir tanada kechuvchi ming turfa ruhiy holatlar kitobxonlarni og'ir ijtimoiy yuklamalar bilan biroz qiynab qo'ysa, shakldagi soddalik, ohangdorlik va samimiylilik she'r ixlosmandlariga lirikani o'qishni osonlashtiradi.

Iqbol Mirzo ijodida ko'zga tashlanadigan ruhiyat sarhadlaridan biri bu – milliy ruhiyat va tarixiy xotira bilan bog'liq. Bu uning ijtimoiy-publitsistik lirikasini bezab turadi. Shoir ijodida ruhiyat tasviri shaxsiy kechinmalardan tashqari, millat ruhiyati bilan ham bog'liqdir. Muallif faqat yakka shaxs emas, u jamiyatga o'zini daxldor deb biladi, uni ham jamiyat muammolari ba'zan qiynaydi, ba'zan yangilanishlar faxrga to'ldiradi.

Iqbol Mirzo milliy tarix, ajdodlar ruhi va xalqning o'tgan iztiroblarini o'z kechinmalari orqali yoritadi. Bir qarashda qalamkash umuminsoniy qadriyatlar kuychisidek tuyuladi, ammo shu bilan birga u o'z millatini sevadi, e'zozlaydi. G'amidan kuyunadi, quvonchidan esa suyunadi. Bu jihat uning she'rlarida ijtimoiy ruhiyatni ham teran ochib beradi. Shoir ko'pincha tarixiy obrazlar, xalq xotirasi, ona yurt manzaralari orqali xalq ruhiyatini ifodalaydi. Bu haqida shoirning o'zi ham "Sizni kuylayman" to'plami so'zboshisida yozib qoldirgan.

Shoir borki, muhabbatni kuylaydi. Ana shunday ishq safida millat kuylari alohida o'rin tutadi. Shoir xalq dardining tarjimoni sanalishi kerak. Shunday ekan, Cho'lpon ta'kidlagandek, shoir "quchoq ochib xalq ichiga borishi" lozim. Iqbol Mirzo ana shunday shoirlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham uning yozganlari tirik satrlar bo'lib, xalq qalbiga oson joylashgan. Qo'shiqlarga aylanib, millat tilidan tushmay kuylanib kelmoqda.

Shoirning tarixiy xotiraga hurmat saqlagan holda yozgan she'rlarida millatga muhabbat, ajdodlar ehtiromi kabilar tarannum etiladi. Qalamkash she'riy to'plamlarining bir qanchasi Vatanga bag'ishlangani ham ushbu fikrlarning tasdig'i bo'lmoqda.

Shoir poetikasida ruhiyat tasviri masalasini muhokamaga tortar ekanmiz, timsollar va ruhiyat ifodasi talqiniga ham diqqat qaratish maqsadga muvofiq. Shoir

ruhiy holatlarni tasvirlashda timsollardan keng foydalanadi. Masalan, osmon, yomg'ir, shamol, qush, yo'l kabi obrazlar inson qalbining beqarorligi, umidvorligi yoki iztirobini aks ettirishga xizmat qiladi. Inson qalbining beqarorligi va dunyo o'rtasidagi hayot tashvishlari, qalb iztiroblari, jism va ruh orasidagi kurash tasvirlari she'rlarni boyitib beradi. Bu timsollar o'quvchi ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi, uni ham o'ylashga majbur qiladi. Shoir she'riyatidagi ruhiyat teran, yuqumlidir. U kitobxonlarga ham tezda yuqib qoladi.

“Har gal shoir ulkan hodisani nazarda tutganida u san'atni, she'riyatni, siyosiy fikrlashga, nasihatgo'ylikka, turlicha she'riyatga daxlsiz balandparvoz quruq ma'lumotlar bilan bexosdan almashtirib qo'yish xatariga duch kelganida ramzlarni qo'llashiga to'g'ri keladi” [1;7]. Ramzlar inson, xususan ijodkor shaxsiyatida yangi bir ruhiy evrilish – ijodiy xatar yuzaga kelganida qo'llanadi degan fikrni bildiradi Guchev. Qalamkash maqsadli shaxs sifatida ma'lum xavflarni ko'ra bilishi va ularning oldini olishi lozim. Timsollar ana shunday vaziyatlarda qo'l keladi. Iqbol Mirzo ham ana shunday usta ijodkorlardan. U qanday vaziyatlarda ramzlar qo'llash kerakligini yaxshi biladi. Timsollarning qo'llanishi esa ijodkor shaxsiyatidagi ayrim ruhiy tushunchalarni izohlab beradi.

Nur ramzi shoir she'riyatida ezgulik timsoliga aylanib ketgan. Hijron ortidan keluvchi diydor, visol timsolini nur vositasida ko'rish mumkin. Qolaversa, shoir ramzlarni berishda tabiat tasvirlaridan oqilona foydalanadi. Peyzaj orqali inson ruhiyatining turli qirralari ochib beriladi. Xususan, yomg'ir – ko'z yosh, quyosh – to'kinlik, yaxshilik, oy – yo'l boshchi, yulduzlar esa hamdard ramzida keladi. Shamol inson ruhiyatidagi tebranishlar, silsilalarga ishora qilgan bo'lsa, yo'l umrga ishora qilib keladi.

Endi esa she'riyatda kechinma tasviri haqida so'z yuritsak, kechinma tasviri deganda shoirning o'zigagina tegishli bo'lgan ichki ruhiy olami, shodlik yoki quvonchdan iborat his-tuyg'ulari, bugungi kunga nisbatan kayfiyati, ichki kechinmalari badiiy ifoda etilishi nazarda tutiladi. Ya'ni lirik asarda voqea-hodisa emas, balki inson qalbining ichki holati asosiy o'rinda turadi. Bu xususiyat

voqeaband she'rlarda nasr bilan sintez hosil qilsa-da, yakunda bari-bir tuyg'ularga murojaat qilinadi va lirikada kechinma tasviri ustunligicha qolaveradi.

Adabiyotshunos olim B. Sarimsoqov lirik kechinmaga quyidagicha ta'rif beradi: "Hayotdagi xarakterli voqea va hodisalar ijodkorning diqqat-e'tiborini tortib, qalb-u shuuriga o'rnashib oladi, unga orom bermaydi. Uning hayoti va faoliyatidagi o'y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. San'atkorning qalbini zabt etgan, uning oromini, huzur-halovatini buzgan ruhiy holat lirik kechikma deb ataladi" [4;85]. Haqiqatan ham, ijodkor bir tanada ham ijtimoiy insonni, ham ruh odamini ortmoqlab yuradigan shaxs sanaladi. Uning kuzatuvlari qoralamalardir. Aslida uning uchun har qanday holat, voqea-hodisa xarakterli sanaladi. Boshqalarning diqqat-e'tiborini tortmaydigan elementlar ham shoirning nigohidan chetda qolmasligi mumkin. Demak, ana shunday jarayonlar shoirning qalbiga ham, ongiga ham joylashib oladi, uning ruhiy muvozanatini buzib, o'yg'a soladi. Oromini yo'qotgan shoir qo'liga qalam olishga majbur bo'ladi. Adabiyotshunosning fikricha, o'sha she'rgacha bo'lgan jarayon, she'r dunyoga kelgunga qadar davom etgan kechinmalar lirik kechinma tushunchasini izohlar ekan. Ko'plab adabiyotshunos olimlar o'z tadqiqotlarida lirik kechinma shoirda she'rgacha kechadigan "to'lg'oq" ekanini ta'kidlaganlar. Yoki she'r ichida kechgan kechinmalarmi? Aslida ikkisi ham bir-biriga bog'liq. Shunga qaramay she'rgacha kechgan va she'r ichida bo'lgan hislar o'rtasida nozik tafovutlar ham yo'q emas.

"Qisqa adabiy ensiklopediya"da kechinma tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilganini uchratamiz: "Kechinma tushunchasi – shoir shaxsining (individusi) namoyon bo'lishini tor ma'noda tushunmaslik lozim: u inson ma'naviy olamiga ta'sir qilgan va aks-sado qaytargan (falsafiy, intellektual, hayotiy, intim va b.) tabiat hamda jamiyat hayotiga oid har qanday voqea-hodisa tufayli uyg'otilgan bo'lishi mumkin. Har holda u kechinmaning ortida hayotiy jarayon borligini bildiradi, hayotning u yoki bu tomonlari haqida biz kechinmadan kelib chiqqan holda fikr bildirishimiz mumkin xolos, bu hol lirik asarning bevosita mazmunini muayyan shaklda aks ettiruvchi kechinmani inkor qilmaydi" [2;209].

Mazkur fikrlarda ham kechinmaga she'ni uyg'otuvchi, ijod namunasi yaralishiga sabab bo'luvchi jarayon nazarda tutilmoqda. Demak, kechinmani insonning ma'naviy olamiga ta'sir o'tkazgan, ta'sir o'tkazibgina qolmay ma'lum ko'rinishda aks-sado bergan har qanday voqea va hodisalar uyg'otar ekan. Qaytarilgan aks-sado esa falsafiy ruhda, intellektual ko'rinishda, hayotiy shaklda yoxud intim lirika tarzida namoyon bo'lishi aytilmoqda. Lirik kechinma aynan o'sha aks-sado intim, ishqiy ekanini anglatadi.

Iqbol Mirzo she'riyatidagi kechinma tasviri intim o'laroq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sevgi va muhabbat hislari, bunda qalamkash sog'inch, hijron, visol quvonchi, rashk, vafosizlik alomini ifodalash, ba'zan ayriliq, sadoqat kabi hislarni tarannum etadi. Shoirning lirik kechinmasi avvalo muhabbatdan tashkil topgan. Unga uyqu bermay qo'liga qalam tutadigan borliqdagi hislardan biri – bu shaksiz ishqdir. Uning “Boychechak” nomli she'riga diqqat qilaylik:

Ko'zlarimning muzini

Ko'z bilan eritgan qiz,

Anduhlarim izini

Bir kulib aritgan qiz.

Boychechagim boylandi [3;2].

Shoir yozganlari xalq og'zaki ijodi namunalariga g'oyat yaqin, hatto unda “Boychechagim boylandi” misrasining kelishi va shu asosda yurak boylanishi bilan bog'liq o'xshatish she'ni yanada xalqchil qilgan.

Bu haqda shoir she'rlaridagi qo'shiqqa aylangan satrlarni o'rgangan A. Ismoilova shunday deydi: “Iqbol Mirzo so'zni qadrllovchi shoir ekanligini ko'ngil mahzanidan to'kilgan ijod mahsulidan anglab olish qiyin emas. Darhaqiqat, shoir ijodidagi umumbashariy mavzular davrlar o'tsa hamki abadiyatga dahldor bo'lib qolaveradi. Shoir ijodidagi Vatan manzaralari yoki milliy ohanglar yo qadimgi turkiy so'z jozibalari shoir kundaligida doimo charaqlab turibdi. Ayniqsa, ijodkor she'riyatida Vatan manzaralari, milliy ohanglarni aks ettiruvchi she'rlari bugun qo'shiqlar og'ushida jilolanadi. Shoir

kundaligida yoritilgan umuminsoniy mavzular, ya'ni Vatan, millat tushunchalarining tirikligini isbotlaydigan va kelajagiga zamin hozirlayotgan noyob shoirlar qatorida ekanligini ko'rsatadi.

Janr xususiyatlarini tahlilga tortsak, mazkur parcha lirikaning muhabbat lirikasiga mansub. Unda shaxsiy kechinma, tuyg'ularning poetik ifodasi markazda turadi. Shoirning his-tuyg'ulari ramziy obrazlar orqali berilgan. Badda qo'llangan badiiy tasvir vositalari ham she'rning go'zalligini ta'minlagan. Xususan, tashbeh "Ko'zlarimning muzini ko'z bilan eritgan qiz" misrasida sevgilining qarashi qahraton sovuqni erituvchi kuch sifatida tasvirlanadi. U eritayotgan muz shoirning ko'zlarida ekani esa yana ham ta'sirchanlikni bergan. Bu yerda ko'z issiqlik va muhabbat ramzi, "muz" esa qalb sovuqligi, g'am va iztiroblarni bildirmoqda. Metaforani quyida ko'ramiz: "Anduhlarim izini bir kulib, aritgan qiz" misrasida kulgu shifolovchi kuch sifatida ko'rsatiladi. Kulgu metaforik tarzda ruhiy og'riqni ketkazuvchi, qalbni davolovchi vosita sifatida talqin etilgan. Ramzlar masalasiga kelsak, "Boychechak" obrazi bahor, yangilanish, noziklik va sof muhabbatni ramziy ifodalaydi. "Boychechagim boylandi" ifodasi esa muhabbatning barqaror bo'lishi, qalbning bog'lanishi ma'nolarini beradi. Xalq og'zaki ijodining yorqin namunasiga aylangan shu nomli qo'shiqdan shoir unumli foydalana olgan deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda:

1. Iqbol Mirzo lirikasida badiiy tasvir vositalari ruhiy holatlarni ifodalashda asosiy poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shoir metafora, tashbeh, ramz va timsollar orqali inson ruhiyatidagi murakkab kechinmalarni badiiy obraz darajasiga ko'taradi. Xususan, qarama-qarshi obrazlar orqali dramatik ohang yaratib, lirik qahramonning iztirob va quvonchlarini yanada teran ifodalashga xizmat qiladi.

2. Ijodkorning badiiy tasvir uslubi shaxsiy kechinmalarni umumiy ijtimoiy-ma'naviy mazmun bilan bog'lab, ruhiy portretni keng ijtimoiy manzara fonida aks ettiradi. Demak, shoirning ruhiyat tasviridagi kuchli badiiylik, eng avvalo, tasvir vositalarining rang-barangligi va ularning semantik imkoniyatlari bilan belgilanadi.

3. Iqbol Mirzo she'riyatida kechinma tasviri lirikaning ichki mazmunini belgilovchi yetakchi omildir. Shoirning lirik qahramoni shaxsiy iztiroblar, muhabbat, sadoqat, qo'rquv yoki qarshilik singari holatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

4, Kechinmalar ifodasida ohang, takror va dramatik intonatsiya muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan, shoir ijodida individual kechinmalar jamiyatning umumiy ruhiy manzarasi bilan uyg'unlashib ketadi. Iqbol Mirzo lirikasida ruhiy tasvirning o'ziga xosligi shundaki, unda inson qalbi faqat individual psixologik maydon sifatida emas, balki millatning ruhiy tajribasi va ma'naviy xotirasi sifatida gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гачев Г. Мысль художественного сознания. – Москва: Искусство, 1972.
2. Краткая литературная энциклопедия. Том IV. – Москва, 1967.
3. Мирзо, Иқбол. Юракнинг шакли. – Тошкент: Камалак, 1993.
4. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2004.
5. Тажибоева Д. XX аср сўнгги чораги ўзбек шеърлятида поэтик услуб муаммолари: Филология фанлари бўйича (PhD) фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2018.
6. Pascal R. Die Autobiographie. Gehalt und Gestalt. Stuttgart. U.a., 1965. S.227.